

XITOIY TOPISHMOQLARINING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Nigina Alisherovna Rasuleva

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti Xitoyshunoslik fakulteti 2-kurs
magistranti

Maqolaning qisqacha annotatsiyasi: Maqolada xitoy topishmoqlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari haqida fikr yuritiladi. Topishmoqlarning semantic-funksional tuzilishi va struktur tuzilishi o'rganib chiqilgan.

Topishmoq bu ilm-fanni o'rganadigan bir turi bo'lib, ular o'zining chuqur ma'noga ega teoriyasi va murakkab asosiga ega.

Topishmoqlar teoriyasining ildizi uning amalda qo'llanilishiga bog'liq. Xitoyda topishmoqlarning kelib chiqishi juda uzoq davrni o'z ichiga oladi, taxminan 3500 mingdan ortiq yillik tarixga ega.

Har bir sohada yoki ilm-fanni o'rganishda aniq qolipga solingan o'rganish obyekti mavjud, asosan maxsus o'rganiladigan ilm-fan soxasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, Mao Tze Dun “矛盾论” “Qarama-qarshiliklar” asarida yozishicha: “Ilm-fanni o'rganishdagi farq, ilm fanda turli xil yutuqlar bo'lganidek, unda kamchiliklar ham mavjud bo'ladi”¹ deb ta'kidlab o'tgan. Shuningdek, “Agar siz bilmaydigan qarama-qarshiliklar uchrasa, biror-bir predmetning harakatidan yoki ko'rinishidan uning qanday predmet ekanligini aniqlab olishingiz mumkin” deb yozilgan. Topishmoqlar insonlarning jamiyat hayotidagi, madaniyatidagi oldingi davrlardan qolgan boylik hisoblanadi, topishmoqlar madaniyatdagi boshqa xalq og'zaki ijodi na'munalaridan farq qiladi. Topishmoqlarning aytilishi va yozilishi maxsus qolipga solingan bo'ladi, topishmoqlarni yozishda uning yozilish tartibiga e'tibor berilishi lozim. Qonun-qoidasi esa aniq va ravshan yaratilishi kerak. Agar kelajakda topishmoqlarni yozishni bu bir ilm turiga kiritsak, unda maxsus o'rganishni tahlil qilishimiz kerak, uning asosiy negizini aniqlab odatdagi yozilish qonunlarini aniqlab, topishmoqlar yozilishini kelajakda rivojlantirish lozim.

Topishmoqlar Xitoy xalqining ko'p uchraydigan adabiyotning bir mashhur turi bo'lib, topishmoqlar o'zining mustaqil tuzilishiga va ma'naviy yorqinligiga ega san'atning bir turi deyish ham mumkin. Topishmoqlar Xitoy xalqi madaniyatining yorqin ma'noga va tuzilishiga ega bo'lgan san'at hisoblanadi. Bunday teoriyani o'qib foydalanganda, topishmoqlarning teoriyasida asarning rivojlanishiga katta e'tibor beriladi. Ularning rivojlanishi maxsus ma'noga egaligi bilan ifodalanadi.

谜学的研究氛围

Topishmoqlarni o'rganish uslubi: Topishmoqlarni o'rganish ham o'ziga xos ilm-fanning bir turidir, ular chuqur amalda qo'llaniladigan asosga egaligini bildiradi. Topishmoqlarning teoriyasini kelib chiqishi uning amalda

¹ 柳忠良“中华灯谜学”。北京：学苑出版社。2014年

qo'llanilishiga bog'liq. Xitoy topishmoqlari Sun va Min sulolalari davrida rivojlandi, ularning soni ortib bordi. Bu bir necha yuz yillar ichida topishmoqlarni o'rganish teoriyasini ikki davrga bo'linishiga sabab bo'ldi:

清末民国，谜理论萌芽时期

Qing Mo davlati davrida topishmoqlarning o'rganilish davri. 20-asrning 10- yillaridan 30- yillarigacha bo'lgan davrda, topishmoqlarni o'rganish yuzaga keldi, topishmoqlar kitobidan tashqari topishmoqqa oid asarlar va topishmoqlar jamlangan bo'lib, yana bir necha topishmoqqa oid kitoblar, bir qancha maqolalar, topishmoqqa oid san'at asarlari yaratildi va ularga tanqidiy fikrlar ham bildirildi. Bu davrda topishmoqlarni o'rganish teoriyasining maqtovg'a sazovor tomonlari ko'rib chiqildi:

Topishmoqlarning turli xil kitoblari chop etildi. Topishmoqlarning asosiy tuzilishi murakkab bo'lib ko'p usuldagi turlari yaratildi. 1904 - yilda (光绪三十年) (Haqiqiy kirish 30 yil), mashhur kitob “棣萼室谈虎”(“Kaiks va tigr suhbatlari”); 1908 – yilda yana bir kitob “谜话”(“Topishmoq”) kitobi va bir nechta to'plamlar nashr qilindi. 1917 –yilda topishmoqlar bo'yicha katta mutaxassis Zhang “橐园春灯话”(“Bahorda bog'da taqillagan ovoz”) deb nomlangan kitob nashr qilindi.

Topishmoqlarni o'rganishda maxsus chop etilgan kitoblar. 1929 – yilda kitoblarning chop etilishi gullab yashnagan davri bo'ldi. Masalan: “评注灯虎不辨类”(Ping zhu deng hu bian lei) “Topishmoqqa yozilgan tanqidiy fikrlar asari” nashr qilindi. Uning bir qismi Budda dini yo'nalishiga oid topishmoqlar va kitoblar; ” 20 – asrning o'ntalik topishmoq kitobi “ chop etildi. Zhang Jian Hou (Zhang Jian Hou) ning maqtovg'a sazovor kitobida epiloglar bor, unga tanqidiy fikrlar va maqtovg'a sazovor jihatlari haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Topishmoqlarni o'rganish tarixi 1928 – yilda Xitoyning janubiy qismida “Topishmoqlar tarixi kitobi” nashr qilindi.

1930 – yilda Chen Guangning “Topishmoqlarni o'rganish” kitobi xitoy tilida (“谜语研究”) nashr qilindi, bu kitobni boshqa kitoblar bilan solishtirganda xitoy xalqining topishmoqlari aniqlovchi vazifasini bajaradi, tarixini rivojlantiradi, tuzilishida murakkab asosga ega, vazifasi ham aniq bayon etiladi,

当代中国，谜理论繁荣时期

Hozirgi davr Xitoyda topishmoqlarning muvaffaqiyatli davri hisoblanadi. XX asrning 80-yillarida 30 yildan ko'proq vaqt ichida, Xitoyda reforma o'zgargandan so'ng, jamiyatda odamlarning fikrlashlari ham o'zgardi, topishmoqlar tarixda to'rtinchi marta katta rivojlanish bosqichini o'z boshidan o'tkazdi. Bir necha ming topishmoqlar kitobida katta miqdordagi topishmoqlar va topishmoq jamlangan to'plamlar nashr qilindi, topishmoqlarni o'rganish teoriyasi asosi qabul qilindi.

Ko'p qismli topishmoq lug'atlarining yaratilishi:

Avval, topishmoqqa oid bir nechta umumiy jamlanma kitoblar chop etilgan. 1989-yil 8-iyulda “实用灯谜小辞典” “Foydalaniladigan topishmoqlar to‘plami kitobi” yaratildi; birinchi marta ilmiy kitob bilan topishmoqlar birlashtirildi. Wang xue maktabida 1989-yil 9 – sentyabrda “中华谜语大辞典” “Xitoy topishmoqlarining katta ilmiy to‘plami” yaratildi. 2000 – yilda “中华灯谜百科全书” Xitoy topishmoqlarining yuzta ilmiy kitobi “ nashr qilindi. Bu esa xitoy tili adabiyotida juda katta bir yutuqlardan biri edi.

Ko‘p qismi topishmoqdan iborat bo‘lgan kitoblarning mashhur nashrlari. 1986 yilda “中华灯谜研究” Xitoycha topishmoqlarni o‘rganish” kitobi nashrga chiqdi. Bu asarda topishmoqlarning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida, topishmoqlarning umumiy asosga egaligi haqida yozilgan, topishmoqlarni topa olish san’ati haqida ham ma’lumotlar keltirilgan. 1988 – yilda “中华灯谜鉴赏” (“Xitoy topishmoqlariga berilgan baho”) nomli kitob nashrdan chiqdi. Unda topishmoqlarning tarixi, uning kelib chiqish asosi va topa olish sirlari ham keltirilgan.

Ko‘p baho berilgan mashhur topishmoq kitoblari. 1985 – 1989 yillarda 吴仁泰² (Wu Ren Taining) ” 佳谜欣赏“ (“Ajoyib topishmoqlardan zavqlanish”) nomli kitob yozib bosmaga chiqarildi. 1991 – yilda uning yana bir kitobi “佳谜鉴赏辞典” (“Ajoyib topishmoqlarning ilmiy to‘plami”) nashrga chiqarildi, 1994 – yilda “海外佳谜欣赏” (“Chet – el mamlakatlarida topishmoqlardan zavq olish”) degan kitob yozib tugatildi. Bu esa xitoy adabiyotida qo‘lga kiritilgan eng katta yutuqlardan biri edi. Topishmoqlar bilan bog‘liq juda ko‘p kitoblar yaratilgani sababli ularni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishni kuchaytirdi.

Topishmoqlarni tarixini o‘rganishni rivojlantirish. 80 – yillarda 温州 (Wen Zhou), 漳州 (Zhang Zhou) tumanlarida akademiyada yil boshida 清末 (Qing mo³) davlatida topishmoqlarni kitobi yozib bosmaga chiqarildi. 1991, 1993 va 1997 - yillarda katta nashriyotlarning 高伯瑜, 邵景衡, 诸家瑜 (Gao Bo Yu, Shao Jing Heng, Zhu Jia Yu) larning “中华谜书集成” kitobi birinchi, ikkinchi va uchinchi qismlarini yozib chiqarishdi; janubiy – sharqiy tomonda esa 200dan ortiq topishmoq asarlari yozildi, ularning hammasini bitta kitobga jamlasak bitta katta kitob holiga keltirish mumkin. Bu nashr qilingan kitobda ko‘p odamlar hali eshitmagan topishmoqlari jamlangan edi, unda ko‘pgina topishmoqlarning tarixi va teoriyalarning savollari mavjud. 2007 – yilda 魏育涛 Wei Yu Taoning “潮汕灯谜史” “Topishmoqlar tarixining to‘lqin bo‘lib kelishi” degan kitobini yozdi, hikoyalar va topishmoqlar san’ati rivojlanib ketdi va davlat tashqarisiga ham umumiy holda tarqalib ketdi. Xitoy topishmoqlarini o‘rganilishini ilm – fanda rivojlanishi.

Hozirgi davrda topishmoqlarni rang- barang ma’nolarini tasvirlashda ko‘p shoirlar kurashmoqda, yuz xil maktablar o‘zaro bellashmoqdalar,

² 吴仁泰 (Wu ren tai) – Xitoyning mashhur asarlar yozuvchisi

³清末 (Qing mo) 1812 – 1990 yillarda Xitoydagi zodagonlar guruhi

topishmoqlarni o'rganish esa jonlandi. 20 – asrning 70 – yillarida topishmoqlar tanqidni o'z boshidan o'tkazdi. 1983 – yilda “开扣从宽，义扣从严“ (“Ko'rinish kenglikni yopadi, haqiqat jiddiylikni berkitadi”) degan mavzuda majlis o'tkazildi. 1985 – yil 10-oktyabrda Nanjing va Nankin shaharlarida topishmoqlar haqida majlis bo'lib o'tdi, unda 2 ta provinsiya, 21 ta shahar va 60 ta qirolliklar qatnashdi.

Ko'pgina yozuvchilar topishmoqlarni maktablarda muntazam ravishda o'rgatishiga o'zlarining juda katta hissalarini qo'shdilar. 1986 - yilda 苏纳戈 Su Na Ge boshchiligida “等谜入门“ (“ Boshqotirmalar alifbosi“) degan kitob nashr qilindi; 1991 – yili 杨永 (Yang yong) ning “谜语漫话“ yozib chiqarildi. 2007 – yilda 翠鸿 (Cui Hong) boshchiligida “猜谜技巧与灯谜创作入门“ “ Topishmoqlarni topish san'ati va topishmoq asarlarining alfaviti” degan asar yozib tugatildi.

Xulosa qilib shuni aytadigan bo'lsak, Xitoyda topishmoqlar tuzib ularni o'rganish san'ati qadimiy davrlardan taraqqiy eta boshlagan. O'sha davrlardan oq topishmoq ilmiga bo'lgan qiziqish yuqori bo'lgan. Buni yozilgan asarlar va ularni tahlili jarayonida ham kuzatishimiz mumkin. Topishmoqlar ustida ishlash hozirgi kunda ham davom etmoqda va tilshunoslik sohasiga o'zining izchil hissasini qo'shmoqda deb aytishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

- 1.“实用灯谜小辞典” 1989 年。
2. “谜语漫话“1991 年。
- 3.“谜语小百科” 四川出版集团 。2013 年。
4. 柳忠良 “中华灯谜学”。北京学苑出版社。2014年。
5. www.twirpax.com